

TURLI DARAJADA DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN YAYLOVLARDA DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI TASHKIL ETISH TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Davlatov Abdullajon

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Anotatsiya: Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish, yer monitoringi va yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo'jaligi yaylov yerlaridan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga ilmiy asosda yondoshish orqali yaylov yerlarida hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Annotation: In our republic, comprehensive measures are being implemented in connection with rational and effective use of land resources, land preparation, land monitoring and geobotanical research on pasture lands, especially in the agrarian sector, effective use of agricultural pasture lands, and certain results are being achieved. In the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, it is stated that "... development of 464,000 hectares of new and disused land, improvement of the system of agro-services based on science and innovation, provision of raw materials to agro-industrial enterprises and development 1.5-fold increase in output volume" are defined as important strategic tasks. In the implementation of these tasks, scientific research on ensuring the stability of the agricultural sector and the food security of the country is gaining importance by approaching the activities of land users on a scientific basis.

Аннотация: В нашей республике осуществляются комплексные мероприятия в связи с рациональным и эффективным использованием земельных ресурсов, подготовкой земель, мониторингом земель и геоботаническими исследованиями на пастбищных угодьях, особенно в аграрной сфере, эффективным использованием пастбищных угодий

сельскохозяйственного назначения, и достигаются определенные результаты. достигнуто. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы указано, что «... освоение 464 000 га новых и заброшенных земель, совершенствование системы агросервиса на основе науки и инноваций, обеспечение сырьем агропромышленных комплексов. -промышленные предприятия и разработка 1,5-кратного увеличения объемов производства» определены как важные стратегические задачи. В реализации этих задач все большее значение приобретают научные исследования по обеспечению устойчивости аграрного сектора и продовольственной безопасности страны путем подхода к деятельности землепользователей на научной основе.

Kalif soʻzlar : *Degradatsiya, Agroxizmatlar, Taraqqiyot strategiyasi, Oʻzdaverloyiha institute.*

Key words : *Degradation, Agroservices, Development strategy, Uzdaverloyiha institution.*

Ключевые слова : *Деградация, Агросервисы, Стратегия развития.*

KIRISH : Oʻzdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 23- apreldagi 299-son «Maʼmuriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida»gi qarori , hamda BMT Taraqqiyot Dasturi-GEFning «Dunyo miqyosida muhim biologik xilma-xillik turlari uchun muhim boʻlgan togʻli mintaqalarda tabiiy resurslar va oʻrmon xoʻjaligidan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida (2019-2021- yy.) bajarilgan. Tadqiqot obʼekti va uslublari. Tadqiqotning obʼekti sifatida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻoldi yaylov yerlari tanlangan. Tadqiqotlarni bajarishda geobotanik tadqiqotlar «Oʻzbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar oʻtkazish boʻyicha uslubiy qoʻllanma» asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Biz tomondan tadqiqotlar olib borilgan tadqiqotlarda, dengiz sathidan 600-900 metr balandlikda joylashgan yaylovlarda Dehqonobod tumanning umumiy yaylov yerlari (216 857,5 gektar)ga nisbatan jami 36 415 gektar (16,7%) maydon, shundan kuchsiz degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni 2 790 gektar (1,3%)ni, oʻrtacha degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni 6 425 gektar (3,0%)ni va kuchli degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni esa 27 200 gektar (12,5%)ni tashkil etishi aniqlandi. Shuningdek, dengiz sathidan 1000 metrdan balandlikda

joylashgan yaylovlarda Dehqonobod tumanning umumiy yaylov yerlari (216 857,5 gektar)ga nisbatan jami 27 131 gektar (12,5%) maydon, shundan kuchsiz degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni 18 251 gektar (8,4%)ni, o'rtacha degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni 6 825 gektar (3,1%)ni va kuchli degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydoni esa 2 055 gektar (0,9%)ni tashkil etishi aniqlandi. Biz tomondan turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarini qayta tiklash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida tashkil etilgan yaylov pilot uchastkalarda istiqbolli ozuqabop yaylov o'simliklari ekib, yetishtirildi. Bunda jitnyak (erkak o't), shuvoq va teresken o'simliklariga nisbatan izen o'simligini yashovchanligi va ozuqabopligi yuqori ekanligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, biz tomondan 2021-2022-yillarda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining dengiz sathidan 600-900 metr baland bo'lgan hududlarida turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlarida tashkil etilgan 0,5 gektarlik jami 2,0 gektarlik pilot uchastkalarda amalda mavjud bo'lgan yaylov o'simliklari (degradatsiyaga uchramagan maydonda) va sun'iy agrofitotsenoz usulida yaratilgan ozuqabop izen o'simligining xo'jalik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bunda 2022 yil holatiga mavjud yaylov o'simliklari xo'jalik ko'rsatkichlari quyidagicha: Degradatsiyaga uchramagan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 2,9 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan 67 563,5 gektar maydonda chorva mollar soni 21 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 3,1 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. Kuchsiz degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,8 s/ga ni, shundan amalda 2 790 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 558 tani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 5,0 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. O'rtacha degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,2 s/ga ni, shundan amalda 6 425 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 857 tani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 7,5 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. Kuchli degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,2 s/ga ni, shundan amalda 27 200 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 2 720 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 10,0 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. 2022 yil holatiga sun'iy agrofitotsenoz

tashkil qilingandan keyingi izen o'simligining xo'jalik ko'rsatkichlari quyidagicha: Degradatsiyaga uchramagan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) izen o'simligining hosildorlik ko'rsatkichlari 3,7 s/ga ni, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni 27 776 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni 5 981 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini 2,4 gektarga, ya'ni 0,7 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. Kuchsiz degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) pilot uchastkada izen o'simligining hosildorlik ko'rsatkichlari 3,1 s/ga, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni 961 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni 403 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini 2,9 gektarga, ya'ni 2,1 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. O'rtacha degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) pilot uchastkada izen o'simligining hosildorlik ko'rsatkichlari 3,1 s/ga, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni 2 213 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni 1 356 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini 2,9 gektarga, ya'ni 4,6 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. Kuchli degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) pilot uchastkada izen o'simligining hosildorlik ko'rsatkichlari 2,9 s/ga, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni 8764 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni 6044 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini 3,1 gektarga, ya'ni 7,0 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. Dengiz sathidan 600-900 metr baland bo'lgan hududlardagi turli darajada degradatsiyaga uchragan jami 36 415 gektar maydonda mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi o'rtacha hosildorligi 1,3 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan chorva mollar soni o'rtacha 1 378 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni o'rtacha 7,5 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. Agar jami 36 415 gektar maydonda izen o'simligi yetishtirilsa uning o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 3,1 s/ga ni, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni o'rtacha 11 938 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni o'rtacha 7 803 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini o'rtacha 3,0 gektarga, ya'ni 7,5

gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. Demak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, dengiz sathidan 600-900 metr baland bo'lgan hududlarda izening o'rtacha hosildorligi degradatsiyaga uchramagan pilot uchastkada – 3,7 s/ga ni, «kuchsiz» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 3,1 s/ga, «o'rtacha» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 3,1 s/ga va «kuchli» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda 2,9 s/ga tashkil etib, mos ravishda 0,8; 1,3; 1,9 va 2,0 s/ga qo'shimcha hosildorlik olishga erishildi. Sun'iy agrofitotsenoz tashkil qilish orqali «kuchsiz» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 961 (+403), «o'rtacha» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 2213 bosh (+1356) «kuchli» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 8764 bosh (+6044) chorva mollari boqish mumkinligi isbotlandi. Huddi shunga mos ravishda 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan maydonlar 2,9 (-2,1); 2,9 (-4,6) va 3,1 (-6,9) geektarga kamayishiga erishish mumkinligi ham isbotlandi. Tadqiqotlar jaryonida biz tomondan yaratilgan elektron raqamli xaritalar Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi yaylov yerlarining aniq hisobini yuritish, degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydonini aniqlash, birlamchi yaylov urug'chilik maydonlarini tashkil qilish va chorva mollari almashlab boqish imkonini bergan hamda respublika «Yaylov yerlari monitoring tizimi» portalini ma'lumotlar bilan ta'minlashda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSALA : Dehqonobod tomondan olib borilgan tadqiqotlarda turli darajada

degradatsiyaga uchragan tog'oldi yaylovlarida sun'iy agrofitotsenoz tashkil

qilishning afzalliklari yuqori ekanligi aniqlandi Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlarda turli darajada degradatsiyaga uchragan tog'oldi yaylovlarida sun'iy agrofitotsenoz tashkil qilishning afzalliklari yuqori ekanligi aniqlandi. Dengiz sathidan 600-900 metr balandlikda joylashgan hududlardagi turli darajada degradatsiyaga uchragan jami 36 415 gektar maydonda mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi o'rtacha hosildorligi 1,3 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan chorva mollar soni o'rtacha 1 378 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni o'rtacha 7,5 geektarga to'g'ri kelishi aniqlandi. 36 415 gektar maydonda izen o'simligi yetishtirilsa uning o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 3,1 s/ga ni, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni o'rtacha 11 938 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni o'rtacha 7 803 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan

yaylovlar maydonini o'rtacha 3,0 gektarga, ya'ni 7,5 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi. Sun'iy agrofitotsenoz tashkil qilish orqali «kuchsiz» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 961 (+403), «o'rtacha» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 2 213 bosh (+1356) «kuchli» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 8 764 bosh (+6044) chorva mollari boqish mumkinligi isbotlandi. Huddi shunga mos ravishda 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan maydonlar 2,9 (-2,1); 2,9 (-4,6) va 3,1 (-6,9) gektarga kamayishiga erishish mumkinligi ham isbotlandi. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani tog'oldi yaylovlarida izen o'simligini joylashtirish bo'yicha 1:100 000 mashtabli ishlab chiqilgan yer tuzish loyihasidan amaliyotdan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Farxodjon ogli, S., Odil ogli, B., & Ortiq ogli, J. IQTISODIYOT VA UNING TARMOQLARINI

RAQAMLASHTIRISH. IQTISODIYOT SOHASIGA RAQAMLI TEXNANOLOGIYALARNI OLIB KIRILISHI.

2. Farxodjon ogli, S., Odil ogli, B., & Ortiq ogli, J. OLIY O'QUV YURLARIDA IQTISOD

BO'YICHA QO'LLANMA: O'ZGARMAS" MA'RUZA VA BO'R" USULINI KO'RIB CHIQISH.

3. Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021).

ISLOM BANKI VA O'ZBEKISTON. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 766-775.

4. Botirjon, R., Oybek, A., & Fayzulla, N. (2021, December). JAHON BANKI VA UNING

TUZILISHI, BOSHQARUV TIZIMI, MOLYAVIY DAROMADI, PUL AYLANMASI ISLOM MOLLIYASI. In Archive of Conferences (pp. 151-155).

5. Botirjon, R., Oybek, A., & Fayzulla, N. (2021, December). JAHON BANKI VA UNING

TUZILISHI, BOSHQARUV TIZIMI, MOLYAVIY DAROMADI, PUL AYLANMASI ISLOM MOLLIYASI. In Archive of Conferences (pp. 151-155).

6. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. (2021). OLIY O'QUV

YURLARIDA IQTISOD BO'YICHA QO'LLANMA: O'ZGARMAS" MA'RUZA VA BO'R" USULINI KO'RIB CHIQISH. Scientific progress, 2(3), 814-824